

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**DANIYAROVA SARBINAZ MAXSETOVNA**

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING ELEKTRON-DASTURIY  
TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06- Raqamli ta‘lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna**

Raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot  
texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta‘minotini takomillashtirish.. 3

**Даниярова Сарбиназ Махсетовна**

Совершенствование электронно-программного обеспечения  
предмета информационных технологий в начальных классах в  
условиях цифровизации..... 23

**Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna**

Improvement of electronic software for the subject Information  
Technologies in primary grades in the context of digitalization..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok opublikovannых rabot  
List of published works ..... 49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**DANIYAROVA SARBINAZ MAXSETOVNA**

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING ELEKTRON-DASTURIY  
TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06- Raqamli ta‘lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8451 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muxitdinova Nodira Mamalatipovna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Ilmiy rahbar:**

**Qayumova Nasiba Ashurovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Abdullaev Botir Baxtiyorovich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-75-26; faks: (99871) 276-76-51, e-mail: ([tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-75-26; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

**M.E.Mamarajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d.(DSc) professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari faninining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirishning barqaror texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Koreya Respublikasida o'tkazilgan xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha belgilangan ta'lim kontsepsiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim tizimini mustahkamlash, bilimlarni tarqatish, axborotdan foydalanish, sifatli va samarali ta'lim va xizmatlarni yanada samaraliroq ko'rsatish, raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatda ta'lim jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlarni tadbiiq etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda<sup>1</sup>.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari faninining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish jarayonlarini amaliy rivojlantirish, zamonaviy ta'lim standartlarini ta'lim jarayoniga tadbiiq'i samaradorligini oshirish, talabalarning kommunikativ, axborot bilan ishlash kompetensiyalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda o'quv fanlari mazmuni integrativ yondashuvlar asosida rivojlantirish, axborot texnologiyalar fanini o'qitish va kasbga tayyorlashni umumevropa CEFR malaka talablari asosida takomillashtirish, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda ta'lim sohalarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot sifatini ko'tarish va amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlarni tijoratlashtirish, ilmiy -tadqiqot ishlarga iqtidorli yoshlarni jalb etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va ta'lim sifatini baholash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish" ustuvor vazifa etib belgilandi<sup>2</sup>. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining dars berishda elektron resurslardan foydalanishni takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2020-yil 5-oktyabrgi "“Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079 son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5313-son, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5349-son, 2019-yil 8-oktyabrgi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

<sup>1</sup> Инчхонская декларация - Образование-2030 : обеспечение всеобщего инклюзивного и справедливого качественного образования и обучения на протяжении всей жизни -стр. 6. [https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233137\\_rus/PDF/233137rus.pdf.multi](https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233137_rus/PDF/233137rus.pdf.multi)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. 23 sentyabr 2020 yil. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y. 03/20/637/1313-son.

to'g'risida" PF-5847-son Farmonlari, 2020-yil 6-oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining 1."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalar fanini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Zakirova, A.A.Abduqodirov, T.T.Kaleekeva, M.X.Allamberganova, N.A.Muslimov, N.I.Taylaqov; axborot texnologiyalar fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish U.SH.Begimqulov, G.SH.Mamutova, M.H.Lutfillaev, M.E.Mamarajabov, A.G'.Hayitov, U.Yu.Yuldashev; axborot texnologiyalarining fanlarora integratsiya masalalari bo'yicha B.C.Abdullaeva, R.X.Djo'raev, R.G.Isyanov, Sh.Sh.Sharipovlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida axborot kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari O.M.Bobienko, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, A.K.Markova, O.D.Avraamova, M.Y.Buxarkina, A.V.Xutorskaya boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari savodxonligi Yu.A.Pervin, O.B.Epischeva, O.I.Pashenko, G.Y.Sokolovalar, V.P.Molochkov, I.V.Aslyan, A.V.Molokovalar tadqiqotlar olib borishgan.

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf darslarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida takomillashtirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar olimlari B.K.Atrostic, S.V.Nguyen, E.Brynjolfsson, A.Mcafee, D.H.Autor, D.Dorn, C.B.Frey, M.A.Osborne, E.K.Cowen, D.Luebke, S.K.Mangal, F.Raymond, D.Keegan, L.W.Anderson, D.Selman va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minotini yaratish masalalariga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini elektron resurslar vositasida o'qitish modelini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishda elektron-dasturiy ta'minotni joriy etish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishda dasturiy ta'minotdan foydalanish samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari faninining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti hamda Qo'qon davlat pedagogika institutining jami bo'lib 310 nafar talabalari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari faninining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, ilg'or tajribalarni o'rganish, suhbat, savol javob, anketa, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, monitoring, umumlashtirish, matematik statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari ta'lim tizimidagi uzviylikni ta'minlashga qaratilgan raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy kommunikativ, axborot bilan ishlash kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'lim paradigmalari integratsiyalash hamda raqamli ta'lim resurslarini yaratish, tarqatish, tamoyillarini qo'llash asosida takomillashtirilgan;

raqamlashtirish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitish modeli ijtimoiy ehtiyoj talablaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy faol, ijodiy tafakkur va axborot oqimiga yo'naltirilgan kompetensiyalarni interaktiv, differensial, integratsion, yondashuvlarga moslashtirish hamda didaktik tizim elementlarini dasturiy ta'minot mazmuniga singdirish, o'z-o'zini rivojlantirishni informal ta'lim shakliga uyg'unligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishda elektron-dasturiy ta'minotni joriy etish metodikasi talabaning ta'limiy ehtiyojlari va maqsadlarini faktik o'rganish, loyihalashtirilgan va ijodiy natijalarga erishishga kafolat beradigan loyiha, flipped classroom, think-pair-share innovatsion metodlarini bosqichma-bosqich qo'llash asosida takomillashtirilgan;

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini

o'qitishda dasturiy ta'minotdan foydalanish samaradorligi baholashning motivatsion-kommunikativ, kognitiv, faoliyatli-refleksiv mezonlarini reproduktiv, produktiv-ijodiy va ijodiy baholash darajalariga transformatsiyalash hamda talaba-resurs bog'liqligini funksional integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta'minotini yaratishga o'rgatish metodikasi va didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

“Baslawish klasslarda informatsiyaliq texnologiyalar” darsligi yaratilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 4-iyuldagi 11/3.1 sonli qaroriga asosan berilgan 2024/254U-415 raqamli nashr ruxsatnomasi);

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyari fanining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish ta'lim resursi yaratilgan va “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi talabalariga tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'lim muassasalari auditoriyalarida raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitish metodikasini takomillashtirilganligi, dissertasiya materiali boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish masalasiga oid seminarlarni tashkil etish va ilmiy izlanishlar olib borishda didaktik manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirishda interaktiv metodlarining yoritilganligi hamda axborot texnologiyalar fanini o'qitish metodikasini rivojlantirishga oid ishlab chiqilgan elektron-dasturiy ta'minot va amaliy-metodik tavsiyalardan boshlang'ich sinflarda dastur, darslik, o'quv qo'llanmalar va elektron resurslarini yaratishda, tayyorlangan ma'ruza, taqdimot, videodars, test topshiriqlari va glossariydan ta'lim amaliyotida talabalarning elektron-dasturiy ta'minot yaratish kompetentligi darajasini baholashda samarali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari:

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari ta'lim tizimidagi uzviylikni ta'minlashga qaratilgan raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy kommunikativ, axborot bilan ishlash kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'lim paradigmalari integratsiyalash hamda raqamli ta'lim resurslarini yaratish, tarqatish, tamoyillarini qo'llash asosida

takomillashtirishga oid tavsiyalar “Baslawish klasslarda informaciyaliq texnologiyalar” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 3-iyundagi 11-05-3650/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda elektron-dasturiy ta'minotidan foydalanish imkoni kengaytirilgan;

raqamlashtirish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitish modeli ijtimoiy ehtiyoj talablaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy faol, ijodiy tafakkur va axborot oqimiga yo'naltirilgan kompetensiyalarni interaktiv, differensial, integratsion, yondashuvlarga moslashtirish hamda didaktik tizim elementlarini dasturiy ta'minot mazmuniga singdirish, o'z-o'zini rivojlantirishni informal ta'lim shakliga uyg'unligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Baslawish klasslarda informaciyaliq texnologiyalar” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 3-iyundagi 11-05-3650/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini elektron-dasturiy ta'minot vositasida o'qitishning metodik tizimi kengaytirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishda elektron-dasturiy ta'minotni joriy etish metodikasi talabaning ta'limiy ehtiyojlari va maqsadlarini faktik o'rganish, loyihalashtirilgan va ijodiy natijalarga erishishga kafolat beradigan loyiha, flipped classroom, think-pair-share innovatsion metodlarini bosqichma-bosqich qo'llash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Baslawish klasslarda informaciyaliq texnologiyalar” nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 3-iyundagi 11-05-3650/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada elektron-dasturiy ta'minot asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlanishiga erishilgan;

raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini o'qitishda dasturiy ta'minotdan foydalanish samaradorligi baholashning motivatsion-kommunikativ, kognitiv, faoliyatli-refleksiv mezonlarini reproduktiv, produktiv-ijodiy va ijodiy baholash darajalariga transformatsiyalash hamda talaba-resurs bog'liqligini funksional integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Baslawish klasslarda informaciyaliq texnologiyalar” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 3-iyundagi 11-05-3650/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini elektron-dasturiy ta'minot vositasida o'qitishda fan tushunchalarining bilish darajasi sifat darajasiga ko'tarilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 10 nomdagi ilmiy ish, shulardan Oliy attestatsiya komissiya ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, ulardan 4 tasi respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, ob‘ekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini elektron resurslar asosida o‘qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini elektron resurslar asosida o‘qitish zaruriyati, boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda elektron resurslardan foydalanishning nazariy asoslari, boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda elektron resurslardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari bayon etilgan.

Dunyo ta‘lim tizimida axborot texnologiyalari fanining o‘qitilishiga nazar tashlasak, informatika ta‘limiga tayyorlash ta‘limning 1-4-sinflaridan-oq boshlanganini hamda bu sohada ilmiy-metodik tadqiqot ishlari jadal olib borilayotganini ko‘rish mumkin.

Respublikamizda axborot texnologiyalari ta‘limiga tayyorlashni boshlang‘ich sinflardan boshlab olib borishda ilk qadamlarining birinchisi Xalq ta‘limi vazirligining 2011 yil 9 iyundagi “Umumta‘lim maktablari uchun 2011-2012 o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 123-sonli buyrug‘i edi, unga ko‘ra, 2-4-sinflarda o‘quv rejada belgilangan maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan haftasiga bir soat, yil davomida jami 34 soat hajmda ingliz tili yoki informatika darslarini etarlicha shart-sharoit yaratilgan, malakali kadrlar bilan ta‘minlangan maktablardagina o‘qitish tavsiya qilingan edi. 2023-yilda esa O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida” buyrug‘iga muvofiq “Informatika va axborot texnologiyalari” fani 1-sinf dan boshlab o‘qitish belgilandi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda yosh chegarasini pasaytirish masalasi deyarli bir ma‘noli hal etilgan. Informatika boshlang‘ich maktabning o‘quv faniga aylanib, o‘zining o‘rganish metodikasiga ega bo‘lmoqda. U o‘z tuzilishi va mazmuniga ega bo‘lib, maktabning “Informatika va AKT” fani mazmunining minimal talablari bilan chambarchas bog‘liq.

“Inson manfaatlari yo‘lida axborotlashgan jamiyatni shakllantirish” deklaratsiyasida shunday deyilgan: “Biz yoshlarning sayyoramizning kelajakdagi mehnat resursi ekanligini, ular AKTni yaratishda yetakchi o‘rin tutishini va bu texnologiyalarni boshqalarga qaraganda tezroq o‘zlashtirishini ham anglaymiz. Shu

bois, ularga ta'lim olish, ijod qilish imkoniyatini yaratib berish lozim. AKTning asosiy foydalanuvchilari bo'lgan yoshlar ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z sog'liqlarini xavf ostiga qo'yadilar. Shuning uchun biz faqat barcha bolalarning farovonligi, himoyasi va uyg'un rivojlanishini ta'minlaydigan AKTni ishlab chiqish va qo'llash majburiyatini olamiz”.

Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2011-yil 7-fevraldagi 61-sonli qarori bilan “Yagona axborot ta'lim muhitini rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlangan bo'lib, u fuqarolar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash orqali axborot ta'lim muhitini butun Rossiya Federatsiyasi hududi bo'ylab tarqatish zarurligini bildiradi. Konsepsiyada boshlang'ich ta'lim uchun elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bo'yicha uslubiy materiallarni ishlab chiqish zarurligi ko'rsatilgan.

Ta'limda qo'llaniladigan texnik vositalarning xilma-xilligini birlashtiruvchi tarkibiy tushuncha “elektron ta'lim resurslari” hisoblanadi. Elektron ta'lim resurslari deganda elektron raqamli shaklda taqdim etilgan, fan mazmuni va ular haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ta'lim resursi tushuniladi. Ta'rifdan kelib chiqadiki, elektron ta'lim resurslariga elektron qurilmalar yordamida ishlaydigan, ham elektron, ham raqamli shaklda taqdim etilgan va ta'lim maqsadlarida foydalaniladigan resurslar (vositalar, imkoniyatlar) kiradi.

Tadqiqotda axborot texnologiyalari va informatikaning ta'limdagi ro'li, yagona elektron axborot ta'lim muhiti, interaktiv o'quv majmualar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanishga bag'ishlangan M.H.Lutfillaev, U.SH.Begimqulov, B.E.Sabirov, I.S.Soliev kabi olimlarni ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. M.E.Mamarajabov, M.A.Ashurov, B.Q.Qodirov, SH.A.Urazmetova, Ye.S.Pavlova, M.A.Pavlichenko va boshqa olimlar ta'limni raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalar fanini zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitish kerakligini ta'kidlaydilar.

M.H.Lutfillaevning tadqiqot ishida elektron qo'llanmalar yaratishning pedagogik, psixologik, nazariy asoslari, masofadan o'qitish tizimida elektron qo'llanmalarning o'rni, pedagogik dasturiy vositalar, elektron qo'llanmalar, virtual stendlar va ular asosida laboratoriya ishlarini bajarish metodikasi masalalari muhokama qilingan. Uning fikricha masofaviy o'qitish turi- ta'limning rivojlantirilgan ko'rinishi bo'lib unda o'qitish “o'quvchi-o'quvchi”, va “o'quvchi-o'qituvchi” orasida ma'lumotlar almashishining zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinadi. An'anaviy o'qitish uslubidan farqli ravishda ta'limning bu turida kompyuter asosidagi telekommunikatsion aloqa orqali talabalarga yuqori saviyada bilim berish imkoniyati yaratiladi.

U.SH.Begimqulovning ilmiy ishida elektron axborot ta'lim muhiti tushunchasini aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ta'minlovchi dasturiy axborot-texnik, o'quv metodik tizimlar majmuidir deb ta'riflagan. Muallifning fikricha ta'lim muassasasining elektron axborot ta'lim muhitini yaratish sof texnik masala bo'lib qolmasdan, balki buning uchun muassasaning ilmiy metodik, tashkiliy pedagogik imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida yo'naltirish talab etiladi.

A.G'.Hayitovning “Umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi

asoslarini o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi hamda amaliyoti" nomli dissertatsiya ishida umumiy o'rta ta'limda kompyuterli ta'lim konsepsiyasi yaratilgan, kompyuterli ta'limda o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tahlil qilinib, ularni pedagogik dasturiy vositalarda modellashtirish usullari ishlab chiqilgan, pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablar hamda dasturli uslubiy ta'minotni yaratish bosqichlari tizimlashtirilgan, kompyuterli ta'limda o'quv materialini o'zlashtirish jarayonini tashkil qilishga o'quvchi faoliyati nuqtai nazaridan yondashib, har bir turdagi mashqni kompyuterda bajartirish jarayoni modellashtirilgan va unda nazorat qilish, ta'limiy ko'rsatmalar berish yordam uyushtirishning maxsus usullari ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqotlar va ilmiy ishlar ta'limda axborot texnologiyalarining, ayniqsa boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining zaruriyati va ahamiyatini ko'rsatib beradi. Axborot texnologiyalari fanining o'qitilishi, zamonaviy bilimlarni shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, texnologiyalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarning kreativlik va ijodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu fan, o'quvchilarga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish va ularning intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Bugungi kunda yuqori sifatli zamonaviy ta'limning zaruriy sharti ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda an'anaviy ta'limning uyg'un kombinatsiyasi hisoblanadi. Zamonaviy boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish o'quv jarayonini takomillashtirish va optimallashtirishning muhim jihatlaridan biri bo'lib, mashg'ulot shakllarini faollashtirish imkonini beradigan uslubiy vositalar va texnikalar arsenalini boyitadi. O'quv jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish talabalarning mustaqil ijodiy va tadqiqot faoliyati uchun katta imkoniyatlar va istiqbollarni taqdim etadi.

Boshlang'ich sinflarda elektron raqamli ta'lim resurslarini qo'llashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: talabalarning boshlang'ich sinf kursining asosiy masalalarini chuqurroq, sifatli samarali o'zlashtirishi, intellektual va kognitiv faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish; talabalarning tegishli ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv va amaliy faoliyatini rivojlantirishni ta'minlash; mantiqiy fikrlashni, xotirani, vazifalarni bajarishga e'tiborni bo'ysundirish qobiliyatini shakllantirish; mavjud bilimlardan foydalangan holda umumlashtirish, tinglash, fikrlash, javob topish qobiliyatini rivojlantirish.

Bizning fikrimizcha, boshlang'ich maktab o'quv jarayonida elektron raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish kerak: axborot texnologiyalari fanidan boshlang'ich bilimlar kursi doirasida elektron raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish; boshlang'ich sinf fanlari doirasida elektron raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish; elektron raqamli ta'lim resurslaridan rivojlanish va tarbiya vositasi sifatida foydalanish.

Oliy ta'limda "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning maqsadi - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni ta'minlash, ularning axborot kompetentligini shakllantirish, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'ladigan pedagogik bilim, ko'nikma va

malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iboratdir.

Fanning vazifalari talabalarni boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rnini asoslash va zarur tavsiyalar berish, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalarini muntazam ravishda yangilab borish zaruratini asoslash va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash mezonlari, yo'llari va usullari bilan qurollantirish, talabalarda istiqbolli o'qitish vositalaridan foydalanish va ularga tayangan holda boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish texnologiyalarini loyihalash, amaliyotga joriy eta olishning bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, talabalarni o'z pedagogik faoliyatlarini tahlil qila olishga, baholashga o'rgatish. Tahliliy - tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot kompetentligini shakllantirish orqali bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun amaliy ko'nikmalarni berishdir.

Dissertatsiyaning **“Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta'minotni takomillashtirishning metodik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalardan elektron-dasturiy ta'minot yaratish talablari, boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minotni joriy etish modeli, boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minotni joriy etish metodikasi bayon etilgan.

“O'zstandart” agentligi tomonidan elektron metodik komplekslar va boshqa elektron o'quv adabiyotlariga va ta'lim resurslariga qo'yiladigan talablar aniq belgilangan bo'lib, ular ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Yangi tendensiyalar paydo bo'lishiga qaramay, dasturiy ta'minotni ishlab chiqishning asosiy bosqichlari o'zgarishsiz qoldi: dasturiy ta'minotni ishlab chiqish jarayonini aniqlash; ishlab chiqish loyahasini boshqarish; maqsadli dasturiy mahsulot tavsifi; mahsulotni loyihalash; mahsulotni ishlab chiqish; qismlarni sinash; qismlarni birlashtirish va mahsulotni butunligicha sinovdan o'tkazish; mahsulotga hamrohlik.

Axborot texnologiyalar fanining boshlang'ich ta'lim bo'yicha yetakchi mutaxassislaridan biri Yu.A.Pervinning fikricha, axborot texnologiyalar boshlang'ich maktabda “zamonaviy axborot jamiyatida faol yashash va harakat qilishga tayyor, IT-ga asoslangan axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish vositalari bilan to'yingan yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak”.

Oliy ta'limda “Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fani 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarining bakalavr yo'nalishlari uchun tuzilgan bo'lib, hajmi 120 soat, shundan 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim uchun 60 soat ajratilgan.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining vazifalari talabalarni boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rnini asoslash va zarur tavsiyalar berish, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalarini muntazam ravishda yangilab borish zaruratini asoslash va tizimli yondashuv asosida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash mezonlari, yo'llari va usullari bilan qurollantirish, talabalarda istiqbolli o'qitish

vositalaridan foydalanish va ularga tayangan holda boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish texnologiyalarini loyihalash, amaliyotga joriy eta olishning bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, talabalarni o'z pedagogik faoliyatlarini tahlil qila olishga, baholashga o'rgatish hisoblanadi.


“Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar davlat ta'lim standarti, fan dasturi, ishchi o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida “Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitish jarayonida mavjud muammolarni aniqlashda quyidagi vazifalar belgilab olingan: boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida “Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitish jarayonini DTS, o'quv-ishchi dasturlari bilan tanishish va tahlil qilish; boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar mavzularini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tayyorlash va taqdim etishni tahlil qilish; boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi talabalarini ish joylari bilan tanishish, xizmat vazifalarini bajarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolarini o'rganib chiqish; oliy ta'lim boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida “Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishni o'rta maktab ta'limi bilan bog'lash masalalarini amalga oshirish va hokazo.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish ijtimoiy ehtiyoji va maqsad vazifalari, yondashuvlari, tamoyillari va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minot <https://raqamli.e-darslik.uz/wp/> saytining mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarini keltirganmiz. Tadqiqotda boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron ta'lim resurslarini yaratishda HTML5, Java script, PHP, MySQL, wordpress va boshqa zamonaviy dasturiy ta'minot va onlayn platformalardan keng foydalanilgan. HTML5, veb-sahifalarning tuzilishini ta'minlovchi markup tili, interaktiv elementlar va multimedia tarkiblarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi. JavaScript veb-sahifalarda foydalanuvchi bilan dinamik muloqot va interaktivlikni ta'minlaydigan dasturlash tili, sahifadagi elementlarni o'zgartirish, foydalanuvchi harakatlarini qayd etish va sahifaning ko'rinishini real vaqt rejimida boshqarish mumkin. PHP, server tomonida ishlaydigan dasturlash tili, dinamik veb-sahifalar yaratishda va foydalanuvchi ma'lumotlarini qayta ishlashda qo'llaniladi. MySQL esa ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi tizim bo'lib, foydalanuvchi ma'lumotlarini saqlash, yangilash imkoniyatlarini taqdim etadi. WordPress foydalanuvchilarga oddiy va intuitiv interfeys orqali veb-saytlarni yaratish imkoniyatini beradigan kontentni boshqarish tizimi, PHP va MySQL asosida ishlaydi va saytlarning dizayni hamda funksionalligini boshqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan <https://raqamli.e-darslik.uz/wp/> elektron axborot ta'lim resursi “Boshlang'ich ta'lim” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fani doirasida elektron ta'lim resurslariga qo'yiladigan talab va tamoyillarga mos ravishda yaratildi.

Taklif etilayotgan saytimizning strukturasi 1 -rasmda keltirilgan.




**1 -rasm. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron resurs (sayt) strukturasi**

Resursdan shaxsiy kompyuter, planshet, mobil telefon va boshqa texnikalar yordamida ixtiyoriy veb brauzerlar orqali ochib foydalanish mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron ta'lim resursining (sayt) maqsadi, vazifalari va imkoniyatlari, dars jarayonidan lavhalar, bog'lanish uchun muallif telefon raqami va elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoq havolalari keltirilgan. Har bir mavzu bo'yicha ma'ruza, glossariy, taqdimot, videodars, amaliy resurslari mavjud. Har bir videodarsni "you tube" ijtimoiy media platformasiga o'tib ko'rish va havolasini ko'chirib olish imkoniyatlariga ega. "Test topshiriqlari" bo'limida mavzular bo'yicha umumiy yakunlovchi test topshiriqlaridan foydalanish va ularning natijalarini statistik tahlil qilish imkoniyatlari yaratilgan. "Yangiliklar" bo'limida "Boshlang'ich ta'lim" fakultetidagi eng so'nggi yangiliklar keltirilgan.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minot (sayt)ni takomillashtirishda qo'yilgan pedagogik talablar va o'quv materiallariga metodik talablar muayyan fanning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, tamoyillari, shuningdek, o'quv materialiga texnologik ishlov berish borasidagi mavjud imkoniyatlarining inobatga olinishini nazarda tutadi. Yuqoridagidan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha bilim, ko'nikmalarni

rivojlantirish modeli (2-rasm) ko'rsatilgandek quriladi.



2 -rasm. Raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot

## **texnologiyalari fanining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish modeli**

Modelning maqsadli blogida ijtimoiy buyurtmaga ko'ra maqsad va vazifalar bayon qilingan. Modelning tashkiliy-funksional blokida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot texnologiyalar fanidan elektron ta'lim resurslarini yaratishdagi yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlari keltirilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot texnologiyalar fanining elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirishda interaktiv, differensial, integratsion yondashuvlarga asoslanildi. Ushbu modelning asosiy tamoyillari: tizimlilik, mobillik, yaxlitlik, ko'rsatmalilik tamoyillari pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirishning tashkiliy, texnologik, innovatsion pedagogik shart-sharoitlari ta'lim jarayonini zamonaviy va samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Modelimizning mazmunli blokida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan elektron-dasturiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqqan saytimizning mazmunini keltirganmiz.

Modelimizning natijaviy blokida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini elektron resurslar orqali o'qitishning baholash mezonlari va rivojlanganlik darajalari o'rin olgan.

Har bir mashg'ulot, mavzu va o'qituvchining uslubiy yondashuvi talabning ehtiyojlari va maqsadlariga mos ravishda, oldindan loyihalashtirilgan, ijobiy natijalarga erishishga kafolat beradigan ijodiy faoliyat sifatida tashkil etilishi zarur. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan o'quv jarayoniga mos ravishda elektron-dasturiy ta'minotga asoslangan metodikasi ishlab chiqildi. Unda loyiha, flipped classroom, think pair shair metodlaridan foydalanilgan.

